



ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RLARIDA TABIATGA MUHABBAT TUYG'USI

Hafiza Muxtorova Ixtiyor qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va rus adabiyot ixlosmandlariga juda yaxshi tanish bo'lgan, serqirra va iste'dodli ijodkor, shoir, yozuvchi, tarjimon, kinossenarist Aleksandr Faynbergning she'rlari va undagi tez-tez uchraydigan tabiatga muhabbat tuyg'usi ufurib turgan tasvirlarini tahlil qilamiz hamda uni shoir sifatida qayta kashf qilishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, she'rlar to'plami, she'r tahlili, nekbinlik, faysafiylik, teranlik, tuyg'ular tiniqligi.

O'zbek va rus adabiyotsevarlariga Aleksandr Faynberg nomi yaxshi tanish. U nafaqat shoir, balki, tarjimon ssenarist sifatida ham barakali ijod qilgan. Ijod namunalari esa o'quvchilar orasida ancha ommalashib ulgurgan. Aleksandr Faynbergning ko'plab she'rlarini rus tilidan Rustam Musurmon mohirona tarjima qilgan. Tarjimasida ham she'rning asliyatdagi ruhi saqlanib qolgan. Shuning uchun biz shoirning rus tilidagi she'rlarini emas, o'zbek tiliga tarjima qilingan she'rlari va ularda tez-tez uchraydigan ona tabiatga muhabbat tuyg'usini tahlil qilamiz.

Sendan bo'sa oladi yulduz,
Bu qirg'oqdan ketaman bugun.

Shoirning "Suzayapman..." – deya boshlanuvchi she'ridagi ushbu jumlalarida tabiat jismlari bilan birga adabiyotning tazod san'atidan ham samarali foydalanilgan.

Daryo bo'ylab oqim betizgin,
Tikilasan samoda – qushlar.
To'lqinlar ham ayrılıq hissin
Sezgan kabi bir – birin ushlar.

Shoirning she'rlarida daryo, to'lqin, oqim, samo, yulduz, oy kabi tabiat jismlarini juda ko'p uchratish mumkin. Ushbu misralarda ham. Shoirning oshiq qalbidagi jo'shqin hislarini daryoning betizgin oqimiga qiyoslashi, sevgi bilan tabiatning uyqash tasvirini eslatadi. To'lqinlarning tartibsiz harakati esa ayriliqqa dosh berolmagan oshiq qalbidagi uchqur kechinmalarga ishora qiladi. Odatda, sokin va barqaror daryo suvlari ikki oshiqning bir-biridan halovat topadigan qalbiga, toshqin va betartib dengiz to'lqinlari esa ayriliqdan ingragan his-tuyg'ularga, oh-voh



tortayotgan oshiqlar kayfiyatiga o'xshatiladi. Ushbu jumlalarda ham shuni ko'rishimiz mumkin.

Tubi yo'q dengizdan boq
Yulduzlar yorug', chaqnar.
Chetlari qirra yaproq,
She'rim asra jon qadar.

Aleksandrning ushbu she'ri ham sokin tabiat tomon chorlovning ijodkorona ko'rinishiga ega, deyish mumkin. Doimgidek shoir bir paytning o'zida dengiz va samo jismlaridan mohirona bog'lagan va oshiqona satrlar ichida foydalangan. Buning asosiy sababi ham ijodkor qalbida ona tabiatga, uning go'zal manzaralariga bo'lgan qaynoq muhabbatidir. Shuni hisobga olib, shoirni tabiatsevar ijodkor sifatida olqishlasak arziyi.

G'amg'in tortar tiniq ko'l bu choq
Kuz singari tund, bulutli yoz.
Yalangliklar titraydi olis,
Yomg'irlarda iviydi tuproq.

Ushbu satrlar ham tabiatsevar satrlarga boy va mazmundor. Undagi g'amginlik kayfiyatini tasvirlash uchun kuz va uniung mahzun manzaralaridan foydalanishi she'rning jilokorligini oshirgan. Bu she'rda ham ko'l va bulut tazod sa'natini aks ettirgan, oxirida kelgan tuproq ham buni tasdiqlaydi. "Yalangliklar titraydi olis" satrlari inson ko'zi orqali olislarga qaraganida ko'zi tushgan manzara titrab ko'rinishiga ishora qilingan va fizik hodisani ijodkorona ohib bergen. "Yomg'irlarda iviydi tuproq" misralari esa mahzunlikdan so'ng ko'zga olingan yosh yuzni yuvGANI, ivitGANI, hovurni bosGANiga mohirona o'xshatish sifatida qog'ozga tushirilgan.

Minnatdorman kulrang kunchiqar,
Mudrayotgan ko'l uzra xurram,

Shoirning she'rlarida tabiat manzarasi tasvirlanmagan satrni uchratish mushkul. Tabiatsevar shoirimiz ushbu satrlarda ham ona tabiat og'ushidagi manzaralarni qistirib o'tkan va inson hislariga bog'lab ishlata olgan.

Umr o'tdi. Chang – to'zon aro
Bilmay bormi yo eding yo'qdan.
Yerostiga chorlaydi sado,
Lek ishorat bo'ljadi ko'kdan.

Aleksandr yuqoridagi she'rini tugatar ekan, umrning tugashiga mahzun kayfiyada yondashadi. Bu yerda umrning tez o'tib ketishi chang to'zonli shamolning



tezligiga o'xshatish qilgan. "Yerostiga chorlaydi sado" satrlari esa chang-to'zonli shamol singari uchib o'tkan umr o'z nihoyasiga yetib, o'lim soya solib turgandagi kayfiyatni beradi. Yerostiga chorlagan sado esa qabrga ishora va bu ham tabiat bilan inson umrining jipslashmasi sifatida satrlarga solingan.

Olis boqqan o'rmonlar ichra
Ma'yus tortar olis yo'l pinhon.
Saf – saf tortgan qabrlar uzra
Manzili yo'q, cheksizdir osmon.

Adabiyotga eng yaqin fan bu falsafadir. Aleksandr Faynbergning she'rlarida ham falsafiy qarashlar talaygina. Shoirning ushbu she'ri ham so'zimizni tasdiqlaydi. Undagi osmon va yerdagi qabrlar ifodasi cheksiz ko'ringan umrning nihoyasi borligi haqida falsafiy qarashlarni o'z ichiga olgan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, adabiyot maqsadsiz va manfaatsiz satrlardan iborat tom-tom kitoblar to'la kitob javoni emas. Undagi har bir kitob, har bir varoq, har bir satr o'z mazmuniga ega. Falsafadan yiroq adabiyot esa ichi bo'sh varoqlardan iborat kitoblarga o'xshaydi. Buni yaxshi anglagan Aleksandr Faynberg ham o'z she'rlarida tabiat manzaralaridan mohirona va faylasufona yondashgan. Qisqa qilib aytganda, inson tabiatdan ayro yashay olmaganidek, yashash falsafasi ham tabiatga suyanadi, andoza oladi, kezi kelsa til-zaboni yo'q tabiatdan dars oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr'_Faynberg
2. <https://arm.samdchti.uz/library/book/view/692>
3. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
4. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-sheriyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>